

**MILLIY DIDAKTIKA VA MAKTABSHUNOSLIK TUSHUNCHA –TERMINOLOGIK  
TIZIMINING KENGAYISHI**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10663996>

**Irisboeva Xotira Utbosarovna**

*O`zbekiston Respublikasi Milliy*

*gvardiyasiga qarashli "Temurbeklar maktabi" akademik liseyi Bosh o`qituvchisi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada milliy didaktik terminlar va ularning mazmuni, milliy didaktikaning rivojlanishi va pedagogik terminshunoslik sohasining hozirgi darajasi, didaktik terminologiya tizimlarning shakllanishi, didaktikaning asosiy kategoriyalari, didaktik tizimlar tarbiya va ta'lim maqsadlari, ta'lim mazmuni, o'qitish jarayonini tashkil qilish, uni amalga oshirish metodlari, milliy didaktikaning tushuncha–terminologik tizimi yangi terminlar bilan kengayishi va didaktika termin tizimining rivojlanishini haqida so'z boriladi.*

**Kalit so'zlar:** *didaktik terminlar, fikr, atamalar va iboralar, tamoyillar, pedagogik lug'atlar.*

Didaktika haqida o'qitishning mazmuni va protsessual jihatlarini ularni yakdil tarzda ko'rib o'tuvchi pedagogik fan sifatidagi ilmiy tasavvur uning predmeti va ilmiy qonuniyatini zamonaviy bosqichda aniqlashtirish imkonini beradi; bu «o'qitish va bilim olishni o'zaro ta'siridagi aloqasi». Didaktikaning asosiy kategoriyalari (o'quv jarayoni, o'qitish, bilim olish, ta'lim mazmuni)ni qa'tiy ta'riflashga ega bo'lmasa ham didaktik qonuniyatlarni bir butun ierarxik tizimi ishlab chiqilmagan.

Olimlarni ko'pchilik qismi shunday fikrni maqullaydiki, o'qitish amaliyotida amalga oshirilib, psixologik-pedagogik kontseptsiyalarga yoki didaktik tizimlarga tayanadi. Didaktik tizimlar tarbiya va ta'lim maqsadlari, ta'lim mazmuni, o'qitish jarayonini tashkil qilish, uni amalga oshirish metodlari va formalari, o'quvchilarni motivatsion-qadriyatlar yo'nalishi orqali xarakterlanadi. Pedagogik bilimni ko'rib o'tilayotgan darajasida ushbu tizimli tashkil qiluvchilarni ifodalovchi so'zlar va iboralarni yangi milliy didaktik terminlar sifatida tadqiq qilish maqsadga muvofiq bo'ladi. SHuni hisobga olish ahamiyatliki, 90 yillar didaktik terminologiya rivojiga, pedagogika terminlari boshqa tizimlarga nisbatan davriy reformalash natijasi katta darajada ta'sir ko'rsatdi: maktab islohati bilan bog'liq, tugallanmagan islohat belgilangan kamchiliklarni boshidan kechirdi, yangisini qabul qildi.

Didaktika maxsus pedagogik tadqiqotlar, ilmiy anjumanlar materiallari, qo'llanma va boshqa manbalar guvohlik berishicha ziddiyatli rivoji bilan xarakterlanadi. Pedagogik borliqda bir butun didaktik nazariyada va asosiy didaktik rejalarini harakatchan qisman amaliy modifikatsiyalarini bir vaqtda mavjud bo'lishi ziddiyatning asosini tashkil qiladi.

Milliy didaktika yillar davomida shakllangan tajribadan va o'qitish tamoyillaridan voz kechmagan holda, shu bilan bir vaqtda o'qitishning an'anaviy tizimidan farq qiluvchi qator yangi terminlarga ega bo'ladi. Masalan, nazariy didaktik modelni umumiy qonuniyatlari ayrim maktabda yoki avtorlik kontseptsiyada hayotga jalb qilingan holda innovatsion sifatlarga ega bo'lishi, turini o'zgartirishi mumkin, lekin bunda asosni tuzuvchi tamoyillar statusini yo'qotmaydi: ta'lim maqsad va mazmuni shaxs ta'limi darajasiga jamiyat tomonidan quyilgan talablarga bog'liq, o'qitish va ta'lim olish ikki yagona jarayon; o'qitish jarayonida bilim, malaka va ko'nikmalar shakllanadi; o'qitish rivojlantiruvchi va tarbiyalovchi, tizimli va ketma – ketli, ilmiy, ko'rgazmali, amaliy yo'naltirilgan bo'lishi kerak. «Zamonaviy o'qitish jarayonini yuksaltirish ahamiyatli va printsipliy yo'llaridan biri uni an'anaviydan farqli mantiqini tuzishdan iborat. Shu bilan bir vaqtda u o'qitish jarayoni asosiy elementlarini variativ tarzda qayta qurishni taqozo qiladi va o'qituvchini ijodi uchun cheksiz kenglikni ochib beradi».

XX asr 80 yillarda har xil didaktik tizimlar ko'plab topilgan. Ularni orasida yaxshi ma'lum bo'lgan:

- rivojlantiruvchi ta'lim tizimi;
- muammoli o'qitish tizimi;
- mazmunli muloqat nazariyasi;
- dasturli o'qitish;
- aqliy harakatlarni bosqichli shakllanish kontseptsiyasi;
- o'qitishni optimallashtirish nazariyasi;
- o'qitish faoliyatini faollashtirish nazariyasi;
- o'qitishning adaptiv tizimi;
- gumanistik shaxsiy yondashishga asoslangan tizimi;
- intensiv o'qitish tizimi;
- pedagog-novatorlar metodik tizimlari;
- o'qitishni jamoaviy usuli;
- yiriklashtirilgan didaktik birliklar nazariyasi;
- faoliyat-kommunikativ asosda tuzilgan tizim;

- tashkiliy –faoliyat o'yini va boshqalar. Bu didaktik tizimlar hozirgi kunda ham takomillashtirilgan holda qo'llanilmoqda.

Ushbu asosda milliy didaktikaning tushuncha–terminologik tizimi yangi terminlar bilan kengayishi tabiiy. V.V.Davidov mazmunli umumiyashtirish terminini fanga kiritdi, u nazariy obrazni inson ongida fikrlash operatsiyalari yo'li bilan olinishini ifodalaydi, tushunchalar tizimi, ularning o'zaro asoslarini birligini o'rnatadi va umumlashtiradi. Pedagogik terminologiyani o'qitish, mazmunli baholash, o'qitish, jamoaviy baholar bilan kengaytirildi va o'qitishni optimallashtirish, qiyinchilik darajasi yuqori bo'lgan o'qitish, o'qitishdagi innovatsiya, o'yinli o'qitish va boshqa terminlar didaktik adabiyotda muntazam mustahkamlandi. Shunga asosan 90 yillarda ushbu terminologiyani o'zlashtirish va mazmunli asosda yangi terminlarning yasashiga olib keldi. Shu bilan bir

vaqtda umumiy didaktikada va predmetlar metodikalarida o'qitish metodlari va usullari, o'qitish jarayonini tashkil qilish shakllari, bilimlarni nazorat qilish usullarini klassifikatsiyalash va aniqlashda xilma-xillik to'xtamaydi.

Asrlar astonasida didaktika termin tizimining rivojlanishini ta'minlovchi boshqa faktorlardan mamlakatda va uni ta'lim tizimidagi ijtimoiy, madaniy, iqtisodiy sharoitlarni o'zgarishini e'tirof qilish mumkin. O'qitishni gumanizatsiyalash va gumanitarizatsiyalashga yo'naltirilgan kurs ta'lim maqsadlarini aniqlashda, o'quv materialini yo'nalish va mazmunini tushunishda o'zgarishlarga olib keldi. O'quv predmetlari tarkibidagi o'zgarishlarni yo'nalishlarini ifodaladi, bu esa an'anaviy terminlarni talqin qilishda o'z aksini topdi va yangilarini paydo bo'lishiga olib keldi. Nafaqat bitta o'quv predmeti doirasida, balki o'quv fanlari tsikllari doirasida o'quv predmetlarining integratsiyasi, o'quvchilar bilimlarini tizimlashtirish g'oyasi ancha rivoj topdi.

Ta'lim tizimi rivojining asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida demokratlashtirish, birinchi navbatda, pedagogik jarayonni subʼekt-subʼekt sifatida emas, balki o'qituvchi va o'quvchini subʼekt-subʼektki munosabatlari sifatida e'tirof qilinishida ifodasini topdi, o'quvchilarni tayyorlash, o'kitishda ularni ehtiyoj va imkoniyatlarini hisobga olishni, shaxsga yo'naltirilganlikni aniqladi, variativ o'quv – tarbiya muassasalarini amalda bo'lishini mumkin qilib quydi. Mana shu tarzda gimnaziyalar, litseylar paydo bo'ldi, xususiy o'quv muassasalari paydo bo'ldi, umumta'lim maktablarida maxsus sinflar ochildi, ko'p sonli avtorlik dasturlar keng tarqaldi. Natijada, nomenklatura kengaydi. Keng mustaqillikga ega pedagogik jamao statusiga ham o'zgarishlar ta'sir qildi. O'qituvchi va o'quvchilar region spetsifikasini, konkret maktabni, o'quvchining qiziqishi va ehtiyojlarini, o'qituvchi imkoniyatlarini hisobga oluvchi o'quv predmetlari va o'quv dasturlarini tanglash imkoniyatiga ega bo'ldi. Ta'lim tizimidagi bu o'zgarishlar ko'pchilik pedagoglar tomonidan tizimni islohat qilish va uni modernizatsiyalash sifatida qaraldi.

90 yillar milliy didaktika terminshunosligi rivojiga informatsiyalarni saqlash va eltish sohasida ilmiy – texnik yutuqlar kuchli ta'sir ko'rsatdi. Zamonaviy jamiyatni yorqin ifodalagan informatsiyani va informatsion texnologiyalarni ta'lim sohasida keng qo'llanish zarurliligini taqozo qildi. Komp'yuter texnikasi qudratli o'qitish vositasi sifatida faoliyat ko'rsatadi, shu sababli o'qitish jarayonini tubdan isloh qilish yangi o'qitish vositalari va o'qitish usullarini kiritilishi bilan bog'liq. O'qitishni, bilimlarni nazorat qilish va o'quv jarayonini boshqarish avtomat tizimlari ta'lim sohasida tabora keng qo'llanila boshladi, ular nafaqat personifikatsiyalangan ta'limga yo'naltirilgan perspektiv o'qitish metodlari asosida o'qitish sifatini oshirishni, o'quv va tadqiqot amaliyotida ijodiy potentsialini ochib berishni, balki jarayon ishtirokchilarini informatsion jamiyat sharoitlarida hayot faoliyatiga tayyorlash, uzluksiz ta'lim tizimining shakllanishini ta'minlaydi. Ta'lim texnologiyasi darajasiga ko'tarilish va o'kitishda komp'yuter vositalarini qo'llash milliy didaktikaning rivojida yangi bosqichni aniqlaydi, milliy didaktik faoliyatni o'zgartirish yetakchi zamonaviy tendentsiyaga aylandi.

Va nihoyatda, shakllangan «ochiqlik» sharoiti va chet el ta'lim resurslarini qo'llash yetarli bo'lishi, ta'lim sohasida informatsion jamiyat shariatlarida faol xalqaro hamkorlik vatandorlik va chet el tajribalarini integratsiyasi uchun, ilmiy bilimlarni boshqa sohalaridagi yutuqlardan pedagogikada foydalanish uchun sharoitlar yaratib beradi.

Maktabni «isloh qilish bo'yicha qonun aktlari, o'kituvchi – avtorlar g'oyalarini kiritish natijalari, umumiy didaktika va xususiy – predmetlik metodika sohalarida zamonaviy psixologik – pedagogik tadqiqotlar va nazariy – amaliy ishlanmalar, tarixiy, ijtimoiy – siyosiy sharoitlarni o'zgarishi, jamiyatni informatsiyalashtirish, chet el ta'lim resurslarini qo'llanilishi va ochiqligi umumiy ta'limga va o'qitishga yangi qarashni aniqlab berdi va hozirgi vaqtda termin tizimidagi jiddiy o'zgarishlarga olib keldi.

O'qitish va tarbiya jarayonini ifodalovchi o'qitishni zamonaviy metodlari va usullarini ifodalovchi va avtorlik ta'lim – tarbiya kontseptsiyalari haqidagi informatsiyalarni eltuvchi bo'ladigan an'anaviy terminlarni tasdiqlashdagi va yangilarini kiritishdagi ehtiyojlar tezda qondirilmoqda.

An'anaviy pedagogika (o'kitish jarayoni, umumiy ta'lim, o'qitish metodi) va umummilliy didaktik terminlar (algoritm, genezis, diagnostika, determenizm, invariant, kvalimetriya, konvetsionallik, medellashtirish, faza, fenomen) bilan bir qatorda XX va XXI asr astonisida pedagogik adabiyotda tizimlararo o'zlashtirma yangi terminlarni qo'llanilishi (masalan, legitimlik, kvesttsexnologiya, bag'ri kenglik) chastotaligi ortib bormoqda, chet el pedagogik terminlari (masofaviy o'qitish, biznes-ta'lim, texnopolis, tbyutor soatlari, metodik vositalar parki), boshqa fanlar terminlarini va umumqo'llanish kuchaydi (ta'lim vektori, ta'limni detsentrelizatsiyasi, ta'lim tsenzi, ta'lim xizmatlari).

Bizni fikrimizcha, tahlil qilishga va tizimlashtirishga avvalombor umumiy didaktika termin tizimidagi yangi yaratishlar va xususiy didaktikalarni pedagogik adabiyotda faqat yetarli keng tarqalishiga ega bo'lgan terminlargina tortilishi kerak va shu sababli ham terminologiyani umuman kengaytirish ko'rsatkichi hisoblanadi, uni rivoji tendentsiyalarini aniqlashtiradi. Didaktika va predmetlarni o'qitish metodikasi muammolari bo'yicha o'quv-metodik qo'lanmalarida va dissertatsiyalar materiallarida bajarilgan terminlarni tutash holda tanlab olishni tahlili natijalari bizni masalani shu tarzda qo'ilishiga olib keldi. Ko'pchilik dissertatsion tadqiqotlar, ayniqsa predmetlar metodikalari bo'yicha o'tkazilib, yangi terminlarga ega, lekin ular doimo umume'tirof qilishdan yoki keng tarqalishdan yiroqda bo'ladi va shu sababli terminologiyada shakllanuvchi yo'nalishlarni ko'rsatkichlari bo'la olmaydi.

Masalan, V.F.SHatalov metodikasi uchun desant metodi, zanjir metodi, ochiq fikrlar darslari terminlari xos bo'lsa, u holda shu metodikaga tayanuvchi o'qituvchilar va uni ijodiy turlantiruvchi tadqiqotchilar ishlanmalarida o'qitishni noana'aviy formalarini ifodalovchi terminlar paydo bo'ladi: dars –ertak, dars-sayohat, dars –tur, dars tadqiqot va h. ayrim olingan didaktik ishlanmalarda ham avtorlar tomonidan yangi terminlar qatoriga kiritilganlari ham kam emas, ammo ularni tuzuvchilarni haqiqatan yangi bo'lgan terminlarni kiritmaydi, balki o'qitish predmetiga qo'llaniladigan umumiy didaktika terminlari

modifikatsiyasi bilan cheklanadi yoki ma'lum terminlar ma'nosini avtorlik talqinda tasdiqlashga intiladi. Ushbu reja didaktika terminologiyasida o'zgarishlarni ifodalovchi terminlarni tanlab olish logikasini aniqlaydi.

Xulosa qilib aytganda mamlakatimizda ta'lim tizimining markaziy b o'g'ini bo'lgan umumiy o'rta ta'lim maktablarda amalga oshiriladi, u holda ta'lim nazariyasidagi ahamiyatli o'zgarishlar mamlakatdagi maktab ishini boshqarish nazariyasi va amaliyotiga haqiqiy ta'sir ko'rsatadi. Bizni bu holda didaktikadagi terminologik o'zgarishlarni maktabshunoslik terminologiyasi va nomenklaturasi bilan yaqin aloqada ko'rib o'tish mumkin.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. O'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil.
2. Xojiev A. Tilshunoslik terminlarining izoxli lugati. - Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2002.
3. Z.Kalendarova. Qoraqolpoq pedagogikasi tushuncha-terminologiya tizimini tadqiq qilishning nazariy-metodologik masalalari. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi jurnali. 2011 yil. 6-son 71-73 bet.
4. Yaxshiyeva E'tibor Baxtiyorovna. O'zbek tilining pedagogik terminologiyasida ko'p ma'nolilik hodisasi. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3 (2), 2023. 562-568.
5. G.Eshchanova. "PARADIGMS FOR SOLVING PROBLEMS OF PRESCHOOL EDUCATION" *Science and innovation*, vol. 2, no. B10, 2023, pp. 424-428. doi:10.5281/zenodo.10058525
6. G.Eshchanova. (2022). SOCIALIZATION OF REFORMS IN THE SYSTEM OF PRESCHOOL EDUCATION. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7375137>
7. Kalendarova Zaravshan Kalbaevna. PRIMARY EDUCATION - THE FOUNDATION OF GENERAL SECONDARY AND HIGHER EDUCATION. Kokand University "Education" Senior Lecturer of the Departmen. International Conference on Humanity, Education and Science London U.K December 15th 2021 [conferencezone.org](http://conferencezone.org) . 330-332.
8. Kalendarova Zarafshon Kalbaevna. INNOVATIVE MODEL OF SHAPING STUDENTS' CREATIVE THINKING SKILLS IN PRIMARY EDUCATION IN THE PROCESS OF CREATING PROBLEM SITUATIONS AND ITS CONTENT. *Innovativ achievements in skience 2022*. Senior Lecturer, Department of Education, Kokand University, Kokand, Fergana region.